Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(Impact Factor) 9.573/2026
ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Google Scholar
doi® digital object identifier
Academic Resource Index ResearchBib
Crossref
SLIB.UZ Scientific library of Uzbekistan

2/2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg‘un G‘AFUROV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa’d DAMANHURIY – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil 26-oktyabrdagi 03-07/8377-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

Muassis:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:

Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Shahzod Islamov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:

Zarifjon Arslonov

Dizayner:

Zarifjon G‘ulomov

«**MOTURIDIYLIK**» jurnali **O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiya**sining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 11-uy.
E-mail:info@maturidijournal.org
Web-sahifa:maturidijournal.org
Telefonlar:(+99855) 515-98-98

МУНДАРИЖА

ISLOMSHUNOSLIK

Muzaffar KAMILOV
Sirojiddin O‘shiyning «al-Fatovo» asarida muftiy odoblari va unga qo‘yiladigan talablar 4

Otabek MUHAMMADIYEV
Dorul hadis – hadis markazlari faoliyati tahlili 15

Mekhrojiddin AMONOV
Zarafshon vohasidagi tariqat murshidlari: o‘zaro munosabat va tahlil 26

Hamida ILHOMOVA
Abu Hanifa shaxsiyati va ilmiy merosining o‘rganilishi 34

ISLOM HUQUQI

Nargiza KHALKHODJAEVA
Islomda farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallarning tarbiyaviy ahamiyati 41

Rakhshona KENJABOYEVA
Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asarida faqihlarning vaqf nazariyasi: fiqhiy bahslar va ularning huquqiy ahamiyati 47

DINSHUNOSLIK

Rustamjon BOZOROV
«Tablig‘ jamoati»ning Markaziy Osiyoda tarqalish omillari va milliy xavfsizlikka ta’siri 57

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI

Shahzod ISLAMOV, Olovkhon NEMATOV
Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari VIII–XII asrlar Samarqand ilmiy muhiti haqidagi nodir manba 64

Doston MUSTAFOYEV
Tarjumon al-Qur’on – Qur’on lug‘ati ma’nolariga oid xalqchil risola 80

FILOLOGIYA

Nodirabegim SAIDOVA
Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish (oliy ta’lim muassasalari tajribasi misolida) 86

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-2/3

Mekhrojiddin AMONOV[a]

[a]*Doctor of Philosophy in History*
Senior Researcher of the Imam Bukhari International Scientific Research Center
Khoja Ismoil town, Poyariq District, Samarkand, 141306, Uzbekistan
E-mail: mirzomerojiddin@gmail.com

ZARAFSHON VOHASIDAGI TARIQAT MURSHIDLARI: O‘ZARO MUNOSABAT VA TAHLIL

Annotatsiya. *Maqolada Zarafshon vohasida faoliyat yuritgan naqshbandiya, yassaviya, kubroviya va ishqiya tariqatlari o‘rtasidagi munosabatlar yozma va epigrafik manbalar asosida tahlil qilinadi. Mazkur tariqatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning vakillari o‘rtasidagi hamkorlik hamda tariqat markazlarida ma’naviy muhitning shakllanishi yoritiladi. Murshidlarning boshqa tariqat shayxlari va muridlari bilan aloqalari tariqatlararo munosabatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. Xususan, Dahbed, G‘azira, Sarmej, Vaxshuvor, Karmana va Samarqanddagi tasavvuf markazlari vakillari o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlik hamda ustoz-shogird munosabatlariga e’tibor qaratiladi. Qosim shayx Azizon, Muhammad Imlo Buxoriy, Musoxon xoja Dahbediy, Mulla Abdurahmon G‘ijduvoniy, Musoxon Sarmejiy va Mirzo Muhammad Abul Fathning bir necha tariqat doirasidagi faoliyati yozma manbalardagi ma’lumotlar asosida ochib beriladi.*

Shuningdek, qabrtosh bitiklarida saqlangan ma’lumotlar asosida tariqat silsilalari va murshidlarning nasab aloqalari tadqiq etiladi. Yozma manbalar bilan epigrafik ma’lumotlarning o‘zaro aloqadorlikda o‘rganilishi shayxlarning ma’naviy vorisligi va qarindoshlik munosabatlarini farqlash hamda ularning tariqatlararo aloqalardagi o‘rnini yoritishga xizmat qiladi. Tariqatlarning tarixiy o‘zgarishlari, yangi markazlarning shakllanishi va turli tariqat vakillarining hamkorligi vohadagi tasavvuf an’analari davomiyligi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot Zarafshon vohasidagi tariqatlarni o‘zaro aloqador ma’naviy an’analar sifatida o‘rganishning ilmiy ahamiyatini yoritadi.

Kalit so‘zlar: *Zarafshon, naqshbandiya, yassaviya, kubroviya, ishqiya, qo‘lyozma, irshodnoma, tasavvuf, tariqat.*

THE MURSHIDS OF TARIKA THE ZARAFSHAN OASIS: MUTUAL RELATIONS AND ANALYSIS

Abstract. *This article examines relations among the Naqshbandiyya, Yasawiyya, Kubrawiyya, and Ishqiyya Sufi orders in the Zarafshan oasis through written and epigraphic sources. It explores the distinctive characteristics of these orders, cooperation among their representatives, and the formation of the spiritual milieu within their centres. Relations between spiritual guides and the shaykhs and disciples of other orders are considered an important dimension of inter-order interaction. Particular attention is paid to spiritual connections and master–disciple relationships among representatives of Sufi centres in Dahbed, Gazira, Sarmej, Vakhshuvar, Karmana, and Samarkand. Written sources are used to examine the activities of Qasim Shaykh Azizon, Muhammad Imlo Bukhari, Musokhan Khoja Dahbedi, Mulla Abdurrahman Gijduvani, Musokhan Sarmeji, and Mirzo Muhammad Abul Fath across multiple Sufi orders.*

The article also investigates spiritual lineages (silsilas) and the genealogical connections of spiritual guides using inscriptions preserved on gravestones. Reading written accounts alongside epigraphic evidence helps distinguish spiritual succession from kinship and clarify their respective roles in inter-order relations. Historical transformations of the orders, the emergence of new centres, and cooperation among representatives of different traditions are considered in relation to the continuity of Sufi traditions in the oasis. The study highlights the scholarly importance of examining these orders as interconnected spiritual traditions within the religious and cultural history of the Zarafshan oasis.

Keywords: *Zarafshan, Naqshbandi, Yassawi, Kubrawi, Ishqiya, manuscript, guidebook, sufism, tariqa.*

KIRISH

Movarounnahr tasavvuf tarixida ko‘p sonli murshidlar birgina silsilaga bog‘lanib qolmagan. Qosim shayx azizon: «Bir silsilaga bog‘lanib qolmang!» deya ta’kidlaganidek, muayyan tariqatda faoliyat olib borayotgan murshid-pir boshqa tariqat shayxlarining suhbatiga borib turgan yoki uning silsilasiga bog‘lanish uchun, unga xizmat qilib, undan ham ijozat olgan. Natijada ba’zi murshidlar bir vaqtning o‘zida ikki tariqatda, ba’zilar esa uch va hatto to‘rt tariqatda ham faoliyat olib borган.

ASOSIY QISM

Tariqatlar asosan quyidagicha tasnif etilgan (Turar, U., 1999:63):a) zikr ko‘rinishlariga ko‘ra (1. Ko‘proq tik turgan holda zikr qiluvchi tariqatlar. Qodiriyani misol qilib keltirish mumkin. 2. O‘tirib zikr qiladigan tariqatlar. Bunga naqshbandiya misol bo‘ladi. 3. Ovoz chiqarmay yashirin zikr qiluvchi tariqatlar. Masalan, naqshbandiya. 4. Ovoz chiqarib zikr qiluvchi tariqatlar. Bunga xilvatiya misol bo‘ladi). B) Qo‘llagan metodiga ko‘ra (1. Tariqi axyor. 2. Tariqi abror. 3. Tarixi shuttor.) V) Fikr tizimlarining haq (islomning bosh asoslariga tayangan holda tashkil qilingan va shakllangan tariqatlar) va botil (bular ikki qismdir:birinchisi dastlab zuhur etib, asoschisining fikrlari haq bo‘lgan, biroq asta-sekin turli fikr va an’analar ta’sirida botilga aylangan tariqatlar. Ikkinchisi avval boshdan islomga zid bo‘lgan tariqatlar) bo‘lishiga ko‘ra tasniflash ilgari surilgan. Albatta, bunday tasniflash orqali mavjud tariqatlar tarixini o‘rganishda yengilliklarni taqdim etadi. Birinchidan, tariqatlar oldindan qanday sinfga mansubligi aniq belgilab olinadi. Ikkinchidan, tariqatlar asosida ilgari surilgan ta’limotlarni tahlil etish imkonini yengillashtiradi. Uchinchidan, tariqatlar namoyandalari hayoti va faoliyatini bir tizimga solish oson bo‘ladi. To‘rtinchidan, tariqatlarga oid manbalarni tarjima va tadqiq etishda ijobiy yechimlarni taqdim etadi.

Yassaviya tariqati shayxi Jamoliddin azizon Hirotga borganlarida, Mavlono Abdug‘ofur uning xizmatiga keladi. Abdug‘ofur naqshbandiya tariqatidagi mashhur ulamolardan bo‘lib, turli e’tirozlarga qaramay, Jamoliddin azizonga sidqidildan xizmat qilgan.

Qosim shayx dastlab Xoja Mulla Valiy (Roqimiy, Sh., 232-233a-b varaq) dargohida o‘n besh yil xizmat qilib, tariqat sabog‘i va ruxsatini olgan. Ustozi vafotidan so‘ng kubroviya tariqati namoyandalaridan biri buxorolik Shayx Abdullatif (Olim shayx, M., 2020:297) huzuriga borib, undan ham tariqat ta’limotini o‘rganadi. «Lamahot»da Qosim shayx azizon to‘rt silsiladan ruxsat olgani to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Qosim shayxning yassaviya, kubroviya, naqshbandiya (Maxdumi A’zamdan ruxsat olgan (Olim shayx, M., 2020:298) tariqati murshidlaridan ta’lim olib, tariqat irshod-ijozatini olganligi manbalarda qayd etilgan bo‘lsa-da, to‘rtinchisi qaysi tariqat ekani haqida ma’lumot uchramadi. Bunga ko‘ra, naqshbandiya tariqati namoyandalari kabi yassaviya tariqati vakillari ham faqatgina o‘z tariqatlari bilan mashg‘ul bo‘lib qolmasdan, boshqa tariqatlarni ham mukammal o‘rganib, ijozat olganligi asnosida bir vaqtda bir necha tariqatda faoliyat olib boradi. Bu tariqatlarning bir-biriga qarama-qarshi bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tariqat pirlari atrofida bir necha tariqatga ergashuvchi muxlis-muridlar soni ortishiga ham xizmat qiladi.

So‘fi Ollohyorning zamondoshi va yaqin suhbatdoshi Xoja Lutfulloh kubroviya tariqati murshidlaridan bo‘lgan. Mir Ahmad Keshiy uning ismini Xoja Latif shaklida bergani tadqiqotlarda (Jumanazar, A., 2015:152) aniqlangan. U Eshoni Shahid nomi bilan mashhur bo‘lib, Shahid(iy) taxallusi bilan she’rlar bitgan. Xoja Lutfulloh Mirzo Bahodur Shirbuduniydan kubroviya tariqati ta’limini olib, ko‘plab murid-shogirdlarni tarbiyalagan. Naqshbandiya-mujaddidiya shayxi So‘fi Ollohyorning kubroviya tariqati vakili Xoja Lutfulloh bilan o‘zaro munosabatlari mustahkamligidan dalolat beradi.

Xojagon va yassaviya tariqat murshidlari (Xoja Yusuf Hamadoniyning shogirdlari Abduxoliq G‘ijduvoniy va Ahmad Yassaviylar nazarda tutilmoqda) ham bir ustozdan ta’lim olgan. Ulardan biri Turkistonda yassaviya maktabiga asos solgan bo‘lsa, boshqa biri xojagon tariqatiga asos solgan. Tariqat vakillari bir-birlari bilan juda yaqin aloqada va yaxshi munosabatda bo‘lishgan. Buni Xoja Ali Romitaniyning yassaviy shayxi Sayyid Ota bilan, Bahouddin Naqshbandning Qusam shayxning dargohida xizmat qilgani, ta’lim olgani kabi misollarda ko‘rib o‘tish mumkin. Bu borada Ubaydulloh Ahror va uning shogird-muxlisi, do‘sti bo‘lgan Kamol shayx Iqoniy o‘rtasida bo‘lgan samimiy munosabatlar to‘g‘risida «Rashahot»da (Ali Safiy, F., 2004:32-33) ham bayon etilgan ma’lumotlar tasdiqlaydi. Maxdumi A’zam Kosoniy-Dahbediyning yassaviya piri murshidi shayx Xudoydodi Valiy va kubroviya tariqati piri Shayx Husayn Xorazmiylar bilan doimo do‘st tutingani ularning faoliyatida biror-bir kelishmovchilik yoki tariqatlar o‘rtasida ziddiyat qarama-qarshiliklar umuman bo‘lmagani manbalardan (Abul Baqo, X., 1210/1795:299[a-б] varaq; Olim shayx, M., 1328/1910) ma’lumdir. Keyingi davrlarda ham mazkur holat davom etib, Muhammad Islom Juyboriy

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

va Qosim shayx azizon do‘stona munosabatni davom ettirishgan. Maxdumi A’zam Kosoniyning shogirdlaridan biri Xurd Azizon Balxiy Muhammad Mo‘min shayx (Darvesh shayx Azizoning o‘g‘li)dan ham irshod olgani aytiladi. Mazkur davrlarda ham bu an’ana davom etib, buni So‘fi Ollohyor ishqiya tariqati shayxlari bilan, Musoxon xoja Dahbediy yassaviya tariqati murshidlari bilan, Muhammad Imlo Buxoriy va Muhammad Islom shayx kabi murshidlar esa bir vaqtning o‘zida ham naqshbandiya, ham yassaviya kabi tariqatlarda faoliyat olib borganida kuzatish mumkin.

Muhammad Imlo Buxoriy naqshbandiya tariqatidagi piri Xoja Podshoh Salim Balxiy bo‘lib, u naqshbandiya-kosoniya silsilasiga mansub bo‘lgan. Yassaviya piri Mavlono Shayx Usmon, kubroviya piri Shayx Mirzo Bahodir Shirbuduniy, ishqiya piri shayx Bobo (Buxoriy, N., 1328/1926:90) kabi to‘rt tariqat murshidlaridan ijozat olgani va shu tariqat mazkur silsilalarni yuritgani ushbu davrda mavjud tariqatlarning bir-biri bilan uzviy-mutanosib tarzda faoliyat ko‘rsatganidan dalolat beradi.

Muhammad Imlo Buxoriyning shogirdlaridan biri Shayx Niyoz Cho‘qmoqiy – Oxund domulla Niyoz Buxoriy, Eshon So‘fi va Niyoz Cho‘qmoqiy kabi nomlar bilan ham atalgani, arra zikrini xush ko‘rgani va mujaddidlikdan ko‘ra ko‘proq ishqiya tariqatida (Jumanazar, A., 2017:465) faoliyat olib borgan. Cho‘qmoq xonaqohi guzaridagi sakkiz hujrali madrasa XVIII asr ikkinchi yarmida bunyod etilgan. Shayx Niyoz Cho‘qmoqiy ushbu xonaqohda jahriy zikr tushgan. Ustozi Muhammad Imlo Buxoriy to‘rt silsila sohibi bo‘lgani natijasida, u ham o‘z navbatida to‘rt silsilani yuritishga ijozat olgan ko‘rinadi. Shu sababli jahriy zikrni ham amaliyotga tatbiq etgan.

Muhammad Islom shayx Karruxiy (1726–1807): «Suluki mo masnaviy xoniist», ya’ni «Bizning suluk masnaviyxonlikdir» deb aytgan. Bunga ko‘ra u «Mavlaviya» tariqatida ham faoliyat olib borganini ko‘rish mumkin. Islom shayx har uchala tariqatda faoliyat ko‘rsatib «Naqshbandiya xufiyani» xush ko‘rgan. Yana boshqa manbalarda Muhammad Islom shayx Karruxiy «chang, nay-surnay, doira va rubobda so‘fiylarning xalqasida zikri samoni talqin» qilganda, eshitgan kishilarda ajoyib holat ro‘y bergani ta’riflab o‘tilgan. Bunda uning «kubroviya» tariqatidagi faoliyati namoyon bo‘ladi. Islom shayxning shayx Faxriddin Iroqiyning (788/1382-yil zulqa’da oyining oltinchi kunida Damashq shahrida vafot etgan. Keyinchalik Shayx Muhyiddin Arabiy qabrining yonida dafn etilgan) sulukida ham bo‘lgani ta’kidlanadi.

Maqsud Dahbediy sayohati davomida Karrux mavzesidagi Islom shayx Karruxiy xonaqohida bo‘lib, u yerda bo‘lgan bir voqeani shunday bayon etgan: «Bir mo‘ysafid (yoshlari saksondan o‘tgan) shunaqa nay chalardiki, eshitganlar hushidan ketardi. Va men undan:«Bunday qarilikda qanday nay chalyapsiz, eshitganlarning yuragi chiqib ketyapti», deb so‘radim. U: «Men yoshlikda bolalar bilan nay chalib o‘tirgan edim. Islom shayx shu ko‘chadan o‘tdilar va qo‘limdan nayni olib, bir necha bor uni chalib, menga berdilar. O‘sha kundan e’tiboran meni nayimni eshitgan bulbuli to‘tilar sarxush bo‘ladi», deb javob berib, «bu Islom shayxning barakotidandir», degan.

Demak, Muhammad Islom shayx, ko‘rib o‘tilganidek, ko‘pgina tariqat murshidlaridan ijozat olgani, pirlik maqomida faoliyati davomida barcha tariqat silsilasini birlashtirgani va shu asosda o‘zidan oldin o‘tgan piri murshidlar singari o‘zidan keyingi silsilani mustahkamlashga harakat qilgani ma’lum bo‘ladi. Albatta bu kabi qarashlar naqshbandiya tariqatida murshidlar o‘z shogirdlarini kasb-hunarli bo‘lishlarini qattiq talab qilgan bo‘lsa, keyingi davr mazkur suluk yetakchilari ham bu an’anani munosib davom ettirgan. Bahouddin Naqshband shogirdlaridan biri Xoja Saqqoyi Valiy (Me’rojiddin, M., 2020:47-50) hayotida buni yaqqol ko‘rish mumkin.

Musoxon asli Nur qal’asidagi Sarmej qishlog‘ida (Buxoriy, N., 1328/1926:104-105) tavallud topgan. Shayx Xudoydodi Valiy avlodidan (ya’ni, ona tomondan bobosi Abdulbosit xojaning onasi shayx Xudoydodi Valiyning qizi va Amir Taqiyuddinning xotinidir). Nosiriddin Buxoriy aytishiga qaraganda, Musoxon bir kuni bobokaloni shayx Xudoydodi Valiy Azizon xonaqosida bo‘lib, Ko‘hak (Zarafshon) daryosi bo‘yida chilladan o‘tirib, jahriy zikr bilan mashg‘ul bo‘ladi va shunda bobosi Xudoydodi Valiydan ma’naviy-ruhoniy tarzida «jahriy» zikrga ruxsat oladi. Shundan keyin u xufiya va jahriya silsilasini davom ettirgan. Biroz muddat o‘tgach, Musoxon Buxoro hukmdori farmoniga muvofiq, arkoni davlat, Buxoro shahriga borib, bir oy muddat shayxulislom lavozimida faoliyat olib boradi va vafot etadi. U Mavlono Muhammad Sharif qabri yoniga dafn etilgan. Bu voqeani Maqsud Dahbediy o‘z yozishmasida Buxoro amiri Musoxonni Buxoroga chaqirib uni mazkur lavozimga tayinlaganini ma’lum qiladi. Shu o‘rinda, Maqsud Dahbediy 1833-yil (Dahbediy, M., 269[a] varaq) Buxorodan Dahbedga qaytib kelishida yo‘lda Kadan mavzesidagi bir xonaqoh (jahriy zikr majlisi)da Musoxon Shayxulislomni ko‘rganini aytib, uni 1835-yilda vafot etganini ta’kidlagan. Demak, Musoxon shayxulislom Sarmejiy 1835-yilda vafot etgan.

Muhammad Amin Dahbediy o‘zining barcha as’hob va muridlari bilan birga Hazrat Shayx Xudoydodi Valiyning mozorini ziyorat qilish uchun

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

yo‘lga chiqadi. Ko‘hak (Zarafshon) daryosi labidagi qovun poliziga yetishgach, muridlaridan biri shu yerga qo‘nib o‘tishni taklif қилади. Shunda Musoxon jahriya tariqatidagi ajdodlarining udumidagi zikrga mashg‘ul bo‘lganda, ustozi Muhammad Amin Dahbediy unga ruxsat beradi. Musoxon (naqshbandiya tariqatidagi xufiya zikrda bo‘lgani holda) ajdodlarining jahriya ohangidagi zikrga chunonam tushib ketadiki, bundan piri juda xushnud bo‘ladi. Keyin ustozi ikki tariqatga ham ruxsat berilganini aytib, Musoxonga jahriya zikrga ijozat beradi. Shu kungacha naqshbandiya tariqatida faoliyat ko‘rsatib kelgan Musoxon, endi yassaviya-jahriya-sultoniya tariqat sulukida ham faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

Tasavvuf tariqatlari ichida naqshbandiya va yassaviya bir-biriga juda yaqin va ma’naviy zamiri bir ekanini ushbu misol ko‘rsatib turibdi. Ya’ni, bir tariqat rahbari o‘zining yaqin shogirdlaridan birini boshqa tariqat uchun faoliyat ko‘rsatishga undamoqda. Naqshbandiya-xufiya tariqati hamda yassaviya-jahriya tariqatlari o‘rtasidagi bu yaqinlik va do‘stlik rishtalariga Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy va Xoja Ahmad Yassaviylar asos solgan. Bu munosabatlar Maxdumi A’zami Dahbediy va Shayx Xudoydodi Valiylar tomonidan yanada mustahkamlangan.

MUHOKAMA

Musoxon shayxulislomning avlodlaridan biri Forish tumanida yashab o‘tgan Eshoni Narzulloxon (1908–1986) bo‘lib, «G‘aribiy» taxallusi bilan zullisonayn g‘azalsaro shoir hamda ilmi sarfu nahv va shariat arkonlari bilimdoni bo‘lgan. U to‘g‘risida yozilgan mo‘jaz risolada (Narzullayev, O‘., 2005:33) avlod shajarasi quyidagi shaklda Musoxon xoja shayxulislomga yetkazilgan:Narzulloh xoja ibn Nizomiddin xoja ibn Jaloliddin xoja ibn Yahyo xoja ibn Musoxoja (shayxulislom).

Muhammad Musoxon Sarmejiyning hayoti va faoliyati tadqiqotchilar (Kattayev, K., 2016; Narzullayev, O‘., 2005; Yuldashxodjayev, X., 2008) izlanishlarida qisman yoritilgan, ba’zilarida hududdagi ziyoratgohlar haqida so‘z ketgan bo‘lsa-da, bu haqda muayyan ma’lumot uchramaydi (Mustafoyev, S., 2010; Xolmurodov, R., 1996).

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Muhammad Musoxon xoja Sarmejiyning avlodlariga tegishli «Qatag‘on» qabristoni (hozirgi Navoiy viloyati Xatirchi tumani Eshonqishloq hududi)dagi qabrtoshlardan epigrafik ma’lumotlarni olishga muvaffaq bo‘lindi (Mustafoyev, S., 2010). Xatirchi tumani qadimda So‘g‘d hududiga qaragan, iqlimi mo‘tadil, yerlari unumdor bo‘lgan.

Qabriston Zarafshon daryosining o‘ng sohilida, qadimiy Dabusiya qal’asining shimoli-sharqida joylashgan. Uning janubi-sharqiy tomonida Xoja Yahyo ibn Musoxon xoja Sarmejiy va avlodlari xilxonasi joylashgan. Xilxona usti ochiq, 30x15 metr maydonni egallagan bo‘lib, oltita qabrtosh o‘rnatilgan, to‘rttasida epigrafik yozuv saqlanib qolgan. Tadqiqot natijasida Xoja Yahyo 1292/1875-76-yil zulhijja/dekabr-yanvar oyida, Sayyid Jaloliddin xoja Eshon Yahyo xoja o‘g‘li 1307/1889-90-yil, Zayniddin xoja 1302/1884-85-yil vafot etgani va Fazliddin xoja Zayniddin xoja o‘g‘li ekani aniqlandi.

Yahyo xojaning avlodlari tomonidan 2012-yilda Musoxon xoja Shayxulislom, Yahyo xoja, Jaloliddin xoja (Indamas eshon (Narzullayev, O‘., 2005:28), Nizomiddin xoja nomlari va ularning ajdodlari haqida qisqacha ma’lumotlar yozilgan marmar lavh o‘rnatilgan.

Xilxonaning shimoliy tomonida Domla Pirmuhammad valadi mulla Avaz Muhammad Urganjiy nomi qayd etilgan qabrtoshda uning 1315/1897-98-yilda vafot etganligi yozilgan.

Epigrafik ma’lumotlardan Yahyo xoja, uning o‘g‘li Jaloliddin xoja, uning o‘g‘li Nizomiddin xoja ekanligi, shuningdek, Fazliddin xoja Zayniddin xojaning o‘g‘li ekanligi ma’lum bo‘lsa-da, ammo Zayniddin xojaning kimning farzandi ekanligi aniqlanmagan.

Marmar lavhda Nizomiddin xoja Jaloliddin xoja o‘g‘li ekanligi aytilgan bo‘lsa-da, lekin unga tegishli qabrtosh uchramadi. Ehtimol, yozuvi saqlanmagan qabrtoshlarning biri unga tegishli bo‘lishi mumkin.

Maqsudi Dahbediy o‘z asarida Buxoro hukmdori Amir Nasrulloh Muhammad Musoxonni mazkur lavozimga tayinlaganini qayd etgan. Oz muddat shayxulislom lavozimida faoliyat olib borib, 1835-yilda vafot etgan.

Silsilani Muhammad Musoxon xoja Sarmejiy vafotidan so‘ng o‘g‘li Yahyo xoja, keyin uning o‘g‘li Jaloliddin xoja davom ettirgan. O‘z navbatida, bundan Jaloliddin xoja o‘zining shogirdi G‘oyibnazar Muhammad Sobir o‘g‘liga tariqat ta’limotini davom ettirish uchun irshodnoma (Muhammad Sobir, G‘.) berganligi ma’lum bo‘ldi.

Ota-bola o‘z davrida tariqat murshidlari bo‘lgani, atrofida ko‘plab shogirdlar tayyorlagani va farzandlari tarbiyasiga alohida e’tibor berib, tasavvuf ilmini puxta o‘rganishlari uchun shart-sharoit qilingani ma’lum bo‘ladi. Shuningdek, ba’zan tariqat silsilasini ketma-ketlikda bir avlod vakillari davom ettirish holati kuzatilgan. Jumladan, naqshbandiya-mujaddidiya murshidi Muhammad Husayn o‘z o‘g‘li Abdusattorga, u o‘g‘li Eshmuhammadga, u o‘g‘li Ubaydullohga ruxsat bergan, yana naqshbandiya-mujaddidiyaning

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

So‘fi Ollohyor tarmog‘ida faoliyat olib borgan shayx Mirzo Abul Hasan o‘z o‘g‘li shayx Mirzo Abul Fathga, u esa o‘g‘li shayx Mirzo Abul Turobga ijozat berganini keltirib o‘tish mumkin.

Muhammad Musoxon xoja Sarmejiyning avlodu ajdodlari shajarasi borasida so‘z yuritadigan bo‘lsak, uning otasi Hasan xoja, uning otasi Lutfulloh xoja ibn Fayzulloh xoja ibn Abdulloh xoja ibn Abdullatif xoja ibn Abdulbosit xoja ibn Amir Taqiyuddin ibn Amir Mahmud ibn Amir Shamsiddin ibn Amir Ibrohim ibn Amir Hoj ibn Sayyid Ali ibn Sayyid Sharafiddin ibn Sayyid Husayn ibn Sayyid Ismoil ibn Imom Ja’far Sodiq ibn Imom Muhammad Boqir ibn Imom Zaynulobidin ibn Imom Husayn ibn Amirul mo‘minin Hazrat Ali (Narzullayev, O‘., 2005:33) (karramallohu vajhahu) ekanini ma’lumot sifatida berib o‘tish o‘rinlidir.

Muhammad Musoxon xoja Sarmejiyning o‘g‘li Yahyo xoja, uning o‘g‘li Jaloliddin xoja, uning o‘g‘li Nizomiddin xoja (vaf. 1925-y.), uning o‘g‘li Narzullaxon (1908–1986), uning o‘g‘li O‘roqxon (Rafi’iddinxon) hoji tibbiyot sohasida uzoq yillar faoliyat ko‘rsatgan.

Uchinchi qabrtoshda nomi keltirilgan Zayniddin xoja vafoti sanasi (1302/1884-85-yil)ga ko‘ra, u Yahyo xojaning o‘g‘li, Jaloliddin xojaning aka (yoki uka) si bo‘lganini taxmin qilishi mumkin. Bu (va uning o‘g‘li Fazliddin xojadan keyingi avlodlar) masala(si) ni keyingi tadqiqotlarda ko‘rib chiqamiz.

Muhammad Musoxon xoja Sarmejiy xufiya va jahriya tariqatlarida faoliyat olib borgani, uning silsilasi shogirdi Muhammad Umar orqali Xorazm hududlariga tarqalgani va Buxoro amirligida oz muddat bo‘lsada shayxulislom lavozimida faoliyat ko‘rsatgani ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, uning avlodlari nomi va faoliyati hamda ular dafn etilgan ziyoratgohda qabrtoshlardagi epigrafik ma’lumotlar asosida vafot sanalari aniqlandi.

Markaziy Osiyoda XVII asrda paydo bo‘lgan naqshbandiya-mujaddidiya silsilasi XVIII–XIX asrlarda keng hudud bo‘ylab yoyilganini ko‘rish mumkin. Ushbu davrda naqshbandiya-mujaddidiya tariqati silsilasi bir necha tarmoqlarga bo‘lingani hamda o‘zaro juda yaqin munosabatda bo‘lgani ayon bo‘ldi. Naqshbandiya-mujaddidiya ta’limoti shakllanishi jarayonida ko‘pgina tariqatlar umumiylashtirilgani sababidan bo‘lsa kerak, bir vaqtning o‘zida ham xufiya, ham jahriya zikr qilish an’anasini uchratish mumkin.

Musoxon xoja Sarmejiy va uning avlodlari uzoq yillar mobaynida silsilani uzviy davom ettirgani oilada ta’lim-tarbiyaga e’tibor yuqori bo‘lganini, shuningdek, allomaning shayxulislom lavozimida va naqshbandiya-mujaddidiya, yassaviya tariqati murshidi sifatida faoliyat olib borgani uning yuksak salohiyat sohibi ekanligini ko‘rsatadi.

Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy yassaviya tariqati murshidlaridan Xodim shayx va Kamol shayx bilan juda yaqin aloqada bo‘lgan. Doimiy ravishda o‘zaro suhbatlar o‘tkazib turilgan. Gohida zikri arra tashkil etilgan.

Xodim shayx Shahrisabzning Gunjishkxona (Chumchuqli) mavzesi (g‘oyibona tush)da Xoja Ahror Valiy bilan uchrashadilar. Yana Samarqandning Muhammad Rajab ko‘chasida (Olim shayx, M., 2020:180) uchrashib suhbatga bo‘lgan.

Samarqand hukmdori Sulton Ahmad mirzo ham Xoja Ahrorga va ham Xodim shayxga muxlis bo‘lgan. Sulton Xodim shayxni as’hoblari bilan o‘z uyiga taklif etib, zikr majlislarini o‘tkazgani haqida manbalarda aytilgan.

Xodim shayx azizon zikr aytishda qalbi qattiqlik qiladigan toifalarni qoralaydi. Qur’oni karimning **«Parvardigoringizni ichingizda yolvorib, qo‘rqib, dildan ertayu kech yod qiling va g‘ofil kimsalardan bo‘lmang»** (A’rof surasi, 205-oyati) oyati tafsirida «G‘ofillardan bo‘lma» degan jumla orqali g‘aflat bilan zikr qilishni man qiladi. Ya’ni, zikr aytuvchi qalbi uyg‘oq holda zikr qilishi lozimligini uqtiradi. Zikrdan murod dil huzur topishi bo‘lib, huzur boqiy bo‘lmaydi. Shariatga dangasaliksiz qoim turib, tariqat hukmiga zavqu shavq bilan harakatda bo‘lish tushuntiriladi. Kubroviylikdagi raqsi samo’ haqida Xodim shayxdan so‘rashganida, uning joizligi to‘g‘risida o‘z xulosalarini (Olim shayx, M., 2020:181-182) bayon qiladi. Ya’ni, xos kishilar uchun bunga ruxsat borligini ta’kidlaydi. Bu bilan Xodim shayx ikki tariqatdan ham nasibasi bo‘lgani tushuniladi. Zamon hukmdorlari ham ikki tariqat murshidlariga alohida e’tibor bilan muomalada bo‘lgani, tariqatlar o‘rtasida ziddiyat yoki kelishmovchilik bo‘lmaganini ko‘rsatadi.

Maxdumi A’zami Dahbediy va Shayx Xudoydodi Valiy yoshlari teng bo‘lib, ikkalasi ham 1461-yilda tug‘ilgan. Biri o‘z zamonasida eng ulug‘ naqshbandiyaning nazariyotchi olimi va peshvosi hisoblansa, ikkinchisi esa yassaviya tariqatining murshidi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. O‘zaro do‘stlik munosabatida bo‘lgan. Shu asnoda ikki tariqatni bir-biridan foydalangan holda boyitgan.

Akademik B.Valixo‘jayev «Maxdumi A’zami Dahbediy» nomli maqolasida:«...Xojagiy Maxdumi A’zam G‘aziraga yetganlarida, shu davrning tanilgan shayxlaridan Bobo Xudoydod Vali bilan uchrashib, bir-birlarining suhbatlaridan bahramand bo‘ladilar. Ma’lumki, Bobo Xudoydodi Valiy yassaviya-jahriya-sultoniya tariqatining ko‘zga ko‘ringan murshidlaridan

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

bo‘lib, Shayboniyxon hamda temuriyzoda Bobur mirzoning hurmatiga sazovor bo‘lgan edi. Maxdumi A’zami Dahbediy Bobo Xudoydodi Valiyga shunday katta taassurot qoldirganki, natijada Bobo Xudoydodi Valiy tuya junidan o‘zlari to‘qigan to‘nni mamnuniyat bilan Maxdumi A’zamga tuhfa qiladi. Bu hol tasavvuf tariqatida e’tirof etish va yuksak darajada qadrlash ramzi sifatida tushuniladi...» (Valixo‘jayev, B., 1993), bunga ko‘ra naqshbandiylik va yassaviylik tariqatida dastlabki davrdan boshlab o‘zaro munosabat mustahkam bo‘lganini ko‘rsatadi. Tariqatlar o‘rtasida ziddiyat yoki kelishmovchilik bo‘lmagan.

Tarixchi Xoja Abulbaqo Maxdumi A’zam Axsikat viloyatidan Samarqandga ko‘chib kelayotganida G‘aziraga tashrif buyurganini aytib, ular orasida oshnochilik va do‘stlik muloqotlari bo‘lganini yozadi. Maxdumi A’zamning tashrifidan xursand bo‘lgan Shayx Xudoydodi Valiy mehmonga o‘zi xizmatda bo‘ladi. Shunda Maxdumi A’zam: «Siz yonimda turing, toki bir-birimiz bilan suhbatda bo‘laylik». Shayx Xudoydodi Valiy esa:«Agar turib qolsam, qo‘rqamanki mulozimlar xizmatida kamchilik bo‘lib qolishi mumkin, shu jihatdan o‘zim xizmat qilmoqdaman», deb aytadi.

Suhbatdan so‘ng Shayx Xudoydodi Valiy o‘z qo‘llari bilan tuya junidan to‘qilgan to‘nini niyoz tariqasida ulug‘ mehmonning muborak qo‘liga tutqazadi. Maxdumi A’zam ham o‘z yoping‘ichini unga kiygizadi. Shundan so‘ng ushbu ikki tariqat naqshbandiya-xojagon va jahriya-sultoniya rahbarlari ko‘p yig‘lashib xayrlashadi.

Ushbu ikki buzurgvorning yana bir uchrashuvi «Lamahot min nafahot al-quds» kitobida quyidagicha zikr qilingan:«...Bozor ayyomida Mavlono Xojagiy Kosoniy (ya’ni, Maxdumi A’zami Dahbediy) Samarqandning Dahbed mavzesidan Farg‘ona vodiysining Axsikat mavzei tomon jami yoronlari bilan borayotib, Shayx Xudoydodi Valiy yashaydigan G‘aziraga borish yo‘li boshida to‘xtaydi. Uning kelganidan xabar topgan Shayx Xudoydodi Valiy uchrashuvga peshvoz chiqib, G‘aziraga taklif etadi. Lekin Maxdumi A’zam hamrohlarning va ot-ulovlarning ko‘pligini aytib, Shayx Xudoydodni tashvishga qo‘ymaslik uchun ma’zurat qilib uzr so‘raydi. Nochor, Shayx Xudoydodi Valiy uyiga qaytadi va yo‘lda o‘z hamrohlariga deydi:«Mavlono Xojagiy Maxdumi A’zamni zo‘rlik ila o‘z uyimizga keltiramiz».

Kech kirib, oqshom payti yomg‘ir yog‘ib, Maxdumi A’zamning chodirlaridan suv o‘ta boshlaydi. Shunda Maxdumi A’zam o‘z hamrohlariga jilmayib: «Mavlono Xudoydod bizni o‘z uylariga olib bormaguncha, qo‘ymaydi», deydi. Keyin jami yoronu as’hoblari bilan Shayx Xudoydodi Valiyning manziliga otlanadi. O‘sha kecha Shayx Xudoydodi Valiy mehmonlar sharafiga ulug‘ mehmondorchilik buyurib, ertasi bomdod namozidan so‘ng katta ma’rifiy majlis qiladi. U majlisda mezbon mehmonlarga yassaviya tariqati yuzasidan mushohadalar bildiradi. Mehmon bo‘lib kelgan Maxdumi A’zam esa bu mushohadalarni tinch o‘tirib eshitadi. Bu toifadagi zohid kishilar shu odatni qabul qilishganki, mezbon tariqat bayonini so‘zlasa, mehmon jim o‘tirib eshitib borishi kerak. Shu ma’noda, qachonki naqshbandiya tariqati peshvosi Xoja Muhammad Porso Hirot shahriga kelib, Shayx Zayniddin Xavofiyning uyiga tashrif buyurganida mezbon so‘zlagan, mehmon esa qunt bilan eshitgan. Va aksincha, qachonki boshqa kunda Shayx Zayniddin Xavofiy Xoja Muhammad Porsonikiga mehmon bo‘lib kelganida mezbon so‘zlab, mehmon esa eshitib borgan (Olim shayx, M., 2020).

MUHOKAMA

XVI asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo hududida faoliyat ko‘rsatgan uch yirik tariqat bo‘lgan naqshbandiya, yassaviya va kubroviya silsilalarining mashhur arboblari Maxdumi A’zam Dahbediy, Shayx Xudoydodi Valiy va Shayx Husayn Xorazmiylar shul tariqa har-har zamonda uchrashib, silsila-suluk va muridlarini bir-birlariga yaqinlashtirar hamda xalq tinchligi yo‘lida faoliyat ko‘rsatar edi.

Yassaviy shayxlari Kosoniy shayxlar bilan juda yaqin aloqada bo‘lgan. Ahmad Kosoniyning o‘g‘li Xoja Kalon Muhammad Amin Dahbediy ham Qosim shayx Karminagiyni ziyorat qilgani va Karminagiyning uni Dahbedda qolib irshod boshlashga undagan. YA’ni Dahbedda turib xaloyiqni tarbiyat qilish bilan shug‘ullanishni (Olim shayx, M., 2020:298) aytgan. Xoja Kalon tariqatda ruxsati yo‘qligini aytgach, Qosim shayx Azizon unga uning otasi (Maxdumi A’zam)dan ruxsati borligini aytadi. Bundan ikki holat ma’lum bo‘ladi. Birinchi holat yassaviy shayxi naqshbandiya tariqatiga ijozat bergani; ikkinchisi Qosim shayx Azizonning ikki tariqatda faoliyat olib borganini ko‘rsatadi.

Ahmad Kosoniyning xalifalaridan Xurd Azizon Balxiy (vaf. 1582-y.), Karmanagiyning xalifalaridan Muhammad Mo‘min shayx Samarqandiydan ham yassaviylik ijozatini olgan. Yana Muhammad Islom Jo‘yboriyning o‘g‘li Xoja Sa’adning (vaf. 1584-y.) xalifalaridan Mulla Aminga intisob etgan. Ahmad ibn Mahmud Haziniy ham naqshbandiy, ham yassaviy shayxidir.

Mavlono Shoh Husayn Miyonkoliy yassaviya tariqati shayxlaridan bo‘lib, naqshbandiy shayxlar bilan hamsuhbat bo‘lgan. Xoja Ahror Valiyning avlod (naqshbandiy shayx)laridan biri Xoja Hoshim suhbatiga

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

(Olim shayx, M., 2020:325) musharraf bo‘lgani manbalarda aytiladi.

Manbalarda jahriya silsilasi vakillarini tahqirlab «po‘stin kiyib yuruvchilar», degan holatlar ham uchraydi. Mavlono Yusufning Kenja ismli o‘g‘li beodob bo‘lgani va beodoblik bilan shu gapni aytgani (Olim shayx, M., 2020:325) ta’kidlangan. Bunday holatlar ko‘plab uchraydi. Bu tariqatga nisbatan emas, tariqat vakiliga nisbatan ishlatilgan ikki kishi o‘rtasidagi munosabatning bir ko‘rinishidir.

Sayfiddin Boxarziy (vaf. 1261-y.) bilan xojagon tariqati namoyandasi Xoja G‘arib suhbatlashgan. Ali Romitaniy ham kubroviya shayxi Alouddavla Simnoniy bilan maktub yozishgan. Alouddavla Simnoniyning shogirdi Ashraf Jahongir Simnoniy (vaf. 1405-y.) bir muddat Bahouddin Naqshbandning suhbatiga qatnashib, naqshbandiylikka qo‘shilgan. Kubroviylik tariqatining zahabiya tarmog‘i asoschisi Abdulloh Barzishabadiy Xoja Is’hoq Hatloniyga murid bo‘lishdan oldin naqshbandiy shayxi Yaqub Charxiy yordami bilan irshod ijozatini oladi.

Sharifiddin Husayn bilan naqshbandiyadan Hasan Nisoriy Buxoriy (vaf. 1597-y.) orasida hurmat va maktub yozishmalari bo‘lgani ma’lum (Tosun, N., 2012:522). Boqibilloh ham yoshligida Sadriddin Buxoriyga qo‘shilib, kubroviya-zahabiyadan ijozat olgan.

XULOSA

Qosim shayx Azizon – kubroviya, yassaviya, qodiriya, naqshbandiya, Muhammad Imlo Buxoriy – naqshbandiya, yassaviya, kubroviya, ishqiya, Musoxon xoja Dahbediy – naqshbandiya, qodiriya, chishtiya, suhravardiya, kubroviya, Muhammad Islom shayx Karruxiy – naqshbandiya, yassaviya, kubroviya, mavlaviya, Mulla Abdurahmon G‘ijduvoniy – qodiriya, chishtiya, nashqbandiya, Musoxon Sarmejiy va Abul Fath – naqshbandiya va yassaviya tariqatida faoliyat olib borgani, tariqatlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar juda yaqin bo‘lganini ko‘rsatdi.

Tariqatlarning o‘zaro munosabatlari ijobiy sa’y-harakatlari natijasida jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi mavqeini mustahkamlashga sabab bo‘lgan. Tariqat pirining ikki, uch yoki to‘rt tariqatdan ijozat olib, ularni ma’lum ma’noda birlashtirishga, ular o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga sabab bo‘ldi. Jamiyatda turli ijtimoiy-siyosiy qatlamlarni g‘oyaviy jihatdan hamjihatligiga turtki berdi. Bu davrda tariqatlar va ijtimoiy-siyosiy kuchlarni bir maqsad atrofida birlashishi, mamlakatni turli ziddiyat-parokandalikdan saqlab qolinishiga ma’naviy tayanch bo‘ldi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abul Baqo Xoja. (n.d.). Jomi’ al-maqomot [Manuscript, Persian; Inv. No. 4]. Komilxon Kattayev shaxsiy kutubxonasi.
2. Faxriddin Ali Safiy. (2004). Rashahot aynil hayot (Obihayot tomchilari). Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti.
3. Nosiriddin Buxoriy. (n.d.). Tuhfat az-zoirin [Lithograph]. Buxoro.
4. Botirxon Valixo‘jayev. (1996, September 11). Maxdumi A’zam Dahbediy. Zarafshon.
5. M. Dahbediy. (n.d.). Mir’ot as-solikin [Manuscript, Inv. No. 1710-261/44]. Madina shahridagi Orif Hikmat kutubxonasi.
6. Abdusattor Jumanazar. (2015). Vaxshuvor. Akademnashr.
7. Abdusattor Jumanazar. (2017). Buxoro ta’lim tizimi tarixi. Akademnashr.
8. G‘. Muhammad Sobir. (n.d.). Irshodnoma [Manuscript, Persian, nasta’liq script]. Muallif shaxsiy kutubxonasi.
9. Komilxon Kattayev. (2016). Maxdumi A’zam tarixi va mukammal dahbediylar tariqati. Mashhur-press.
10. S. Mustafoyev. (2010). Xatirchining tabarruk siymolari. Muharrir.
11. M. Me’rojiddin. (2020). Shovdornoma: Toyloq ziyoratgohlari tarixi. Oltin meros press.
12. O‘. Narzullayev. (2005). Ibratli hayot gulshani. Movarounnahr.
13. Necdet Tosun. (2012). Orta Asya’da tasavvuf. In Orta Asya’da İslam (temsilden fobiye) (Vol. 1). Ankara–Türkistan.
14. Muhammad Olim shayx. (2020). Lamahot. Qaqnus.
15. Muhammad Olim shayx. (n.d.). Lamahot [Lithograph, Inv. No. 315]. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi qo‘lyozmalar fondi.
16. Sharafiddin Roqimiy. (n.d.). Tarixi tomm [Manuscript]. Muallif shaxsiy kutubxonasi.
17. Usmon Turar. (1999). Tasavvuf tarixi. Istiqlol.
18. I. Xolmurodov. (1996). Xatirchi tumani tarixidan lavhalar. Fan.
19. X. Yuldashxodjayev. (2008). Musoxon Dahbidiyning Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqati rivojida tutgan o‘rni (XVIII asr) [Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi]. Toshkent.

REFERENCES

1. Abul Baqo Xoja. (n.d.). Jomi’ al-maqomot [Manuscript, Persian; Inv. No. 4]. Komilxon Kattayev shaxsiy kutubxonasi.
2. Faxriddin Ali Safiy. (2004). Rashahot aynil hayot (Obihayot tomchilari). Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti.
3. Nosiriddin Buxoriy. (n.d.). Tuhfat az-zoirin [Lithograph]. Buxoro.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

4. Botirxon Valixo‘jayev. (1996, September 11). Maxdumi A’zam Dahbediy. Zarafshon.
5. M. Dahbediy. (n.d.). Mir’ot as-solikin [Manuscript, Inv. No. 1710-261/44]. Madina shahridagi Orif Hikmat kutubxonasi.
6. Abdusattor Jumanazar. (2015). Vaxshuvor. Akademnashr.
7. Abdusattor Jumanazar. (2017). Buxoro ta’lim tizimi tarixi. Akademnashr.
8. G‘. Muhammad Sobir. (n.d.). Irshodnoma [Manuscript, Persian, nasta’liq script]. Muallif shaxsiy kutubxonasi.
9. Komilxon Kattayev. (2016). Maxdumi A’zam tarixi va mukammal dahbediylar tariqati. Mashhur-press.
10. S. Mustafoyev. (2010). Xatirchining tabarruk siymolari. Muharrir.
11. M. Me’rojiddin. (2020). Shovdornoma: Toyloq ziyoratgohlari tarixi. Oltin meros press.
12. O‘. Narzullayev. (2005). Ibratli hayot gulshani. Movarounnahr.
13. Necdet Tosun. (2012). Orta Asya’da tasavvuf. In Orta Asya’da İslam (temsilden fobiye) (Vol. 1). Ankara–Türkistan.
14. Muhammad Olim shayx. (2020). Lamahot. Qaqnus.
15. Muhammad Olim shayx. (n.d.). Lamahot [Lithograph, Inv. No. 315]. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi qo‘lyozmalar fondi.
16. Sharafiddin Roqimiy. (n.d.). Tarixi tomm [Manuscript]. Muallif shaxsiy kutubxonasi.
17. Usmon Turar. (1999). Tasavvuf tarixi. Istiqlol.
18. I. Xolmurodov. (1996). Xatirchi tumani tarixidan lavhalar. Fan.
19. X. Yuldashxodjayev. (2008). Musoxon Dahbidiyning Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqati rivojida tutgan o‘rni (XVIII asr) [Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi]. Toshkent.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

2/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 10.11.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

“Standard Poligraf Service”
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.